

**A.Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy institutining
“Jalinga” studiyasidan foydalanish tartib-qoidalar**

1. Mazkur tartib-qoidalar A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Jalinga studiyasidan foydalanishning tartibini belgilaydi. Qoidalar institut professor-o‘qituvchilari, xodimlari, ilmiy izlanuvchilar, shuningdek, tashqi buyurtmachilarga tatbiq etiladi.

2. Ushbu hujjat institutning ustav vazifalaridan kelib chiqib, ta’lim jarayonini sifatli tashkil etish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o‘qituvchilar va tadqiqotchilar uchun interaktiv media kontent yaratish imkoniyatini kengaytirishga xizmat qiladi.

3. Jalinga studiyasida O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga va axloqiy me’yorlar, milliy qadriyatlarga zid bo‘lgan kontentlarni tasvirga olish taqiqlanadi.

1. UMUMIY QOIDALAR

4. Studiyada videodarslar, taqdimotlar, ilmiy loyihalar, vebinar va intervyular, podkastlar sifatli tarzda tasvirga olinadi hamda institutning elektron ta’lim platformalari va ijtimoiy tarmoqlarida joylashtiriladi.

5. Studiyadan foydalanish Institut kengashi qarorlari, rektor buyrug‘i va shartnoma asosida amalga oshiriladi.

6. Institut xodimlari va ilmiy izlanuvchilarga institut rektorining ko‘rsatmasi bilan, institutdan tashqari buyurtmachilarga esa shartnoma asosida studiyadan foydalanishga ruxsat etiladi.

2. STUDIYA ISHLARINI TASHKIL ETISH

7. Studiyadan foydalanish reja-jadvali Matbuot, media va muzey xizmati bo‘limi tomonidan shakllantiriladi va tasvirga olish ishlarini amalga oshiriladi.

8. Studiyadan foydalanishda har 5 soatdan keyin 30 daqiqa texnika vositalariga tanaffus beriladi.

9. Studiyada tasvirga olish ishlarini tashkil etishda quyidagilar amalga oshiriladi:

Kamera, mikrofon va proyektorni ishga yaroqliligini muntazam tekshirish;

Kamera va mikrofonni kompyuterga ulab, drayverlar to‘g‘ri ishlayotganini tekshirish;

Ekran proyeksiyasi uchun HDMI yoki boshqa kerakli kabel ulanganini tekshirish;

Studiyaning foydalanishiga maxsus dasturiy ta’minotni faollashtirish;

yozuv paneli qalamga to'g'ri javob berayotganini sinab ko'rish;
Studiya ichidagi maxsus LED yoritgichlarni yoqish, tushayotgan nurlarning tabiiy va bir tekis bo'lishiga e'tibor qilish;
Mikrofonni tekshirish, shovqin filtri va ovoz darajasini moslashtirish;
Matn, chizilgan shakllar va foydalanuvchi ko'rinishi qanday aks etayotganini ko'zdan kechirish;

Ovoz va tasvir sinxron bo'lishiga e'tibor qilish.

10. Studiyaning foydalanishda quyidagilarga ruxsat berilmaydi:
Ovqat (har qanday turdagi), chimliklar, tamaki mahsulotlari;
Oddiy marker, ruchka yoki doskani buzadigan yozuv asboblari;
Elektr rozetkaga keraksiz qurilmalarni ulash;
Kuchli magnit, lazer ko'rsatkich, nur beruvchi qurilmalardan foydalanish;
Yonuvchi yoki o'tkir buyumlarni (gugurt, pichoq va boshqalar) olib kirish;
Balansni buzuvchi kiyim (yorqin neon rang, katta chiziqli liboslar – kamera tasvirini buzadi).

11. Foydalanuvchilardan quyidagilarga rioya etish talab etiladi:

Foydalanuvchi studiyaga faqat belgilangan vaqtda kirishi, undan tashqarida foydalanish qat'iyan taqiqlanadi;

Kamera, mikrofon, yorug'lik, monitor va boshqa texnik vositalar but saqlanishi shart;

Jihozlarga shikast yetkazilgan taqdirda, foydalanuvchi ularni to'liq qiymati bo'yicha qoplab beradi;

Elektr jihozlarni noto'g'ri ishlatish, xavfsizlik qoidalarini buzish foydalanuvchi zimmasida hisoblanadi;

Mualliflik huquqlarini buzish, noqonuniy kontent yozish yoki tarqatish holatlarida foydalanuvchi barcha huquqiy oqibatlarini o'z zimmasiga oladi;

Begona shaxslarni ruxsatsiz olib kirish taqiqlanadi;

Shovqin ko'tarish, boshqa foydalanuvchilarga xalaqit berish taqiqlanadi;

12. Ushbu qoidalarining istalgan bandini buzgan foydalanuvchi ogohlantiriladi, takroriy holatda esa studiyadan foydalanish huquqidan mahrum qilinadi.

13. Nosozliklarni yashirish yoki xabar bermaslik intizomiy choralar va moddiy javobgarlikka olib keladi. Studiyaning yetkazilgan moddiy zarar uchun foydalanuvchi to'liq javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

14. Tartib-qoidalarini buzganlar ogohlantiriladi, takroran buzilish holatlari sodir etilsa, xodimlarga foydalanish huquqi vaqtincha yoki butunlay cheklanishi mumkin, buyurtmachilar bilan shartnomalar bekor qilinadi.

15. Studiyaning yaratilgan kontentning sifatiga, uni belgilangan muddatda tayyorlashga va saqlashga mas'uliyat foydalanuvchida qoladi.

3. YAKUNIY QOIDALAR

16. Studiyaning foydalanish jarayoni yuzasidan har 6 oyda tahlil o'tkazilib, kengash yig'ilishida hisobot beriladi.

17. Ushbu tartib-qoidalar institutning rivojlanish strategiyasi, ta'lim sifatini oshirish maqsadlari va xalqaro hamkorlik loyihalari bilan chambarchas bog'liq holda doimiy ravishda yangilanib boriladi.

18. Mazkur tartib-qoidalarini buzgan shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.